

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

KASIMOVA MUQADDAS BEKPO‘LATOVNA

**O‘ZBEK TILIDAGI FE‘LLARDA SEMANTIK GRADUONIMIYA VA
UNING LEKSIKOGRAFIK AHAMIYATI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Kasimova Muqaddas Bekpo'latovna

O'zbek tilida fe'llarning semantik graduonimiyasi va uning leksikografik ahamiyati
..... 3

Касимова Мукаддас Бекпулатовна

Семантическая градуонимия глаголов узбекского языка и её
лексикографическое значение 25

Kasimova Mukaddas Bekpulatovna

Semantic graduonymy of verbs in the Uzbek language and its lexicographic
significance..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

KASIMOVA MUQADDAS BEKPO‘LATOVNA

**O‘ZBEK TILIDAGI FE‘LLARDA SEMANTIK GRADUONIMIYA VA
UNING LEKSIKOGRAFIK AHAMIYATI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.PhD/Fil3053- raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tersu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Oybek Saparboyevich
filologiya fanlari doktori, professor
Dusmatov Hikmatullo Xaitboyevich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "29" 08 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz)


Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (187 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.


Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "23" 08 da tarqatildi.

(2023-yil "23" 08 dagi 35 — raqamli reyestr bayonnomasi)




B. Umurqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor.


A. Eshmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent


Sh. Maxmaraimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida graduonimlarga ilmiy munosabat o'z taraqqiyot bosqichlariga ega, tilga sistem yondashuv nazariyasining amaliy masalalariga qaratilayotgan tadqiqotlar ko'lam har qachongidan ko'ra keng miqyos egallamoqda. Xususan, til sistemasidagi leksik-semantik munosabatlar tarkibidagi graduonimlarni paradigma sifatida o'rganish o'z dolzarbligini ko'rsatishi tilshunoslikning keyingi davridagi tadqiqotlari orqali yanada oydinlashmoqda. Bu esa darajalanish hodisasini zamonaviy paradigmalarda asosida o'rganish, darajalanish munosabatiga asoslangan so'zlarning so'z turkumlariaro leksikografik talqinlari tamoyillariga mosligini ta'minlash zaruriyatini ko'rsatadi.

Dunyo tilshunosligida hozirgi vaqtda fe'l turkumiga oid bo'lgan semantik graduonimiya hodisasini o'rganishda mavzuviy maydon tamoyili asosida yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lingvodidaktik jihatdan ta'limiy resurslarni yaratishda o'quv lug'atlarining o'rni beqiyosdir. Fikrni ta'sirchan va samarali ifodalash imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi lug'aviy birliklarni, darajalanish munosabatiga asoslangan birliklarning lingvistik lug'atlardagi izohlarini takomillashtirish va boyitib borish masalasi bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbek tilshunosligida ijtimoiy-madaniy-ma'naviy hayotni o'zida aks ettiruvchi o'zbek tilining tadqiqi va ta'limi masalasi ayni vaqtda davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Davlat tili maqomidagi o'zbek tilining tadqiqi, ta'limi va tatbiqi borasidagi keng ko'lamli islohotlar qisqa davr ichida o'z samarasini berib kelayotganligi hammamizga ayon bo'lmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan til siyosati o'zbek tilining taraqqiyoti, tadqiqi va ta'limini samarali ta'minlashning muhim va birlamchi omilidir. "...davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash¹" bugungi kunda til siyosatini tamsil qiladi. Bu esa o'zbek tilshunosligi tomonidan qator muhim vazifalarning amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Fe'llardagi semantik darajalanish hodisasining leksikografik talqini masalasi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5058351>

takomillashtirish to'g'risida"gi VMQ-304-son qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ma'lum miqdorda yordam bera oladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan-texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida graduonimiya (darajalanish) hodisasi bilan bog'liq nazariyalarni qayd etish masalasi dastlab Platon, Suqrot, Prodik, F.de Sossyur, J.Lokk, E.Sepir, D.Bolinjer, Y.D.Apresyan, V.M.Solnsev kabi tilshunoslarning ilmiy nazariyalarida qayd etilgan bo'lsa, keyinchalik S.D.Kasnelson², I.R.Galperin³, O.Yeprersen⁴, Yu.S.Stepanov⁵, S.M.Kolesnikova⁶, C.Kennedy, S.N.Perevolochanskaya⁷, Y.D.Arbatskaya va boshqa tilshunoslar bu nazariyani yanada rivojlantirdilar.

O'zbek tilshunosligida ham ayni shu yo'nalishda Sh.Rahmatullaev⁸, R.Yunusov⁹, E.Qilichev¹⁰, S.T.Giyasov¹¹, E.Begmatov¹², H.Ne'matov, R.Rasulov¹³, A.Nurmonov, R.Safarova¹⁴, O.Bozorov¹⁵, Sh.Orifjonova¹⁶,

²Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М.-Л.: Наука, 1965.

³Гальперин И.Р. Stylistics. – М.: Высшая школа, 1971.

⁴Епрерсен О. Философия грамматики. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1958.

⁵Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. Учебное пособие. – М.: Просвещение, 1975.

⁶Колесникова С.М. Категория радикальности в современном русском языке. Дисс. ... докт. филол. наук. – М. 1999.

⁷Переволичанская С.Н. Смысловые градации в рамках синонимических отношений. // Нижегородская: Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, – 2008, № 4.

⁸Рахматуллаев Ш. Семик таҳлил ва лексик синонимияни таърифлаш масаласи //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1979. В. 55.

⁹Юнусов Р. Полисемия и синонимия имен существительных места в современном узбекском литературном языке. Автореф дисс...канд. фил. наук – Ташкент, 1974.

¹⁰Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари: – Тошкент, Фан. 1982. – Б.87.

¹¹Гиясов С. Т. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка. – АКД-Т., 1983.

¹²Бегматов Э., Неъматов Х. ва Расулов Р. "Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (систем лексикология тезислари)"// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. № 6. – В. 35-50.

¹³Х.Неъматов, Р.Расулов. Ўзбек тили систем лексикологияси. Тошкент "Ўқитувчи" 1995.

¹⁴Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке. – Автореф... канд. фил. наук. –Т.: 1980.

¹⁵Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш; Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. –Тошкент, 1997.

¹⁶Орифжонова Ш. Ўзбек тилида дугавий градуонимия: Филол. фан. номз. ...дисс. афтореф. –Тошкент, 1996.

H.Shamsiddinov¹⁷, L.Xudoyberdiyeva¹⁸, N.Shirnova¹⁹, J.DJumaboyeva²⁰, Sh.Shahobiddinova²¹, B.Baxriddinova²², Sh.Bobojonov, I.Islomov²³, G'.Rahmonov²⁴, R.Shukurov²⁵, Z.H.Rahmatova²⁶, Q.Eshboyev²⁷ va boshqa tadqiqotchilarning izlanishlari mavjud.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 25–1 “Til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilidagi fe'llarda semantik graduonimiya hodisasi va uni leksikografik talqin qilish mezonlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tilshunoslikda darajalanish hodisasining ilmiy tadqiqi, uning leksik-semantik munosabatdosh birliklardan farqi, graduonimik munosabat masalasidagi bahs va munozaralarga oydinlik kiritish;
- tilshunoslikda daraja paradigmasi va daraja kategoriyasi tushunchalarining leksikografik ahamiyatini yoritish;
- fe'llarda semantik graduonimiya munosabatida bo'ladigan so'zlarning izohli va o'quv lug'atlardagi leksikografik talqinini tekshirish va baholash;
- izohli lug'atlarda graduonimlar sharhidagi farqlarni kuzatish;
- o'zbek tilining graduonimlar o'quv lug'atida darajalanish belgilari va darajalanish qatorlarining berilishini o'rganish;
- graduonimlarning “O'zbek tili ta'limiy korpusi”da berilishi va izohlanishi masalalarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tilidagi fe'llarda semantik graduonimiya hodisasi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini fe'llarda darajalanish hodisasi va uning leksikografik tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda funksional-semantik, statistik tahlil, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:

¹⁷Шамсиддинов Х. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синономлари; Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

¹⁸Худойбердиева Л.С. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг даражаланиши; Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2003.

¹⁹Ширинова.Н. Ўзбек тилида предметлик ва белги- хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

²⁰ДЖумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия; Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2016.

²¹Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I қисм. – Андижон, 1994.

²²Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув лугатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020.

²³Бобожонов Ш, Исломов И. Ўзбек тилининг сўзлар даражаланиши ўқув лугати: Тошкент, 2007.

²⁴Ғ.Раҳмонов. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати; фил.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Фарғона, 2018.

²⁵Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент.: Фан, 1977.

²⁶Раҳматова З.Х. Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ўстиришнинг лингвистик асослари. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Қарши, 2021.

²⁷Эшбоев Қ. Сўзлараро даражаланиш ўқув лугатини тузиш асослари: Филол. фан. фалс.док. ... дисс. автореф. – Андижон, 2022.

- tilshunoslikda darajalanish hodisasi tizim sifatida leksik-semantik munosabatlar tarkibida paradigma ko‘rinishida alohida o‘rganilganligi sinonimiya, giponimiya, xolonimiya kabi munosabatdosh birliklar qiyosi asosida ochib berilgan;
- sifatlar etakchi ma’no belgi-xususiyatni ifodalagani uchun ularda darajalanish yuqori bo‘lishi va fe’llar esa belgi yoki holatni harakatda ifodalaganligi uchun ulardagi graduonimik qatorlar turlicha ekanligi aniqlangan;
- lug‘atlarda graduonimiya tushunchasiga yaqin daraja, gradatsiya, gradual oppozitsiya, daraja kategoriyasi, darajali oppozitsiya, daraja shakli kabi shakllarda berilgan bo‘lsa ham ular graduonimiya tushunchasini ifodalay olmasligi yangi nashrlarda esa aynan graduonimiya tushunchasining izohi berilishi zarurligi asoslangan;
- o‘zbek tilining o‘quv darajalanish lug‘atida darajalanuvchi so‘zlarning mavzuviy ko‘lamiga ko‘ra bir xil, darajalanish belgisiga ko‘ra turlicha berilganligi aniqlangan.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati graduonimiya hodisasi va fe’l turkumiga oid so‘zlarda semantik darajalanishning leksikografik talqini hamda tasnifi masalasini lingvistik tamoyillar asosida amalga oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining “Leksikologiya”, “Semasiologiya” va “Leksikografiya” “Morfologiya” bo‘limlari, “Amaliy tilshunoslik”, “Leksikografiya asoslari”, “O‘zbek o‘quv lug‘atchiligi” fanlaridan darslik va qo‘llanmalar, lug‘atlar yaratish, antropotsentrik leksikografiyani fan sifatida o‘qitishning metodik ta’minotini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammo va unga yechimning qo‘yilgani, ishda olingan xulosalarning tavsiflash, tasniflash, statistik tahlil, funksional-semantik metodlari bilan asoslangani, xulosalar chiqarishda yaratilgan darajalanish o‘quv lug‘atining namunalariga tayanilgani, ilmiy-nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga keng joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Lug‘atlarda graduonimiya tushunchasiga yaqin *daraja, gradatsiya, gradual oppozitsiya, daraja kategoriyasi, darajali oppozitsiya, daraja shakli* shakllarda berilgan bo‘lsa ham ular graduonimiya tushunchasini ifodalay olmasligi yangi nashrlarda esa aynan *graduonimiya* tushunchasining izohi berilishi asoslanganligiga oid natijalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi AM-F3-201908172 “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 9-fevraldagi № 04/1-268-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tili ta’limiy korpusini yaratishda darajalanish belgilari va darajalanish qatorlarining berilishini tahlil va tavsiflash, materiallarni boyitish imkonini bergan;

- tilshunoslikda darajalanish hodisasi tizim sifatida leksik-semantik munosabatlar tarkibida paradigma ko‘rinishida alohida o‘rganilganligi sinonimiya, giponimiya, xolonimiya kabi munosabatdosh birliklar qiyosi asosida ochib berilganligiga doir natija va xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi PZ-2020042022 “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi”ni yaratish

amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 9-fevraldagi 04/1-269-son ma'lumotnomasi). Natijada turkiy tillarda lingvodidaktik qarashlarni dalillash fe'llarda darajalanishga oid keltirilgan misollarning ilmiy asoslarga egaligi ta'minlangan;

— sifatlar etakchi ma'no belgi-xususiyatni ifodalagani uchun ularda darajalanish yuqori bo'lishi va fe'llar esa belgi yoki holatni harakatda ifodalaganligi uchun ulardagi graduonimik qatorlar turlicha ekanligiga oid natija va xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi PZ-20170927147 "Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo'lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 9-fevraldagi 04/1-270-son ma'lumotnomasi). Natijada turkiy yozma manbalar tadqiqini so'z turkumlari doirasida ham tavsiflash imkoniyati ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi 2 ta xalqaro konferensiya, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni muallif tomonidan chop etilgan 11 ta ilmiy maqola (ularning 4 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tasarruf etgan ilmiy jurnallarda, 3 tasi xorijiy jurnallarda) va tezislarda o'z ifodasini topdi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, obyekti va predmeti, tadqiqot natijalarining ishonchligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Graduonimiyaning til sathlarida voqelanishi**" deb nomlangan birinchi bobi uch bo'limdan tashkil topgan bo'lib, unda jahon tilshunosligida leksik-semantik tadqiqotlar tahlili, o'zbek tilshunosligida daraja paradigmasi va daraja kategoriyasining o'rganilishi, graduonimiya, gradatsiya, graduallik kabi terminlarning jahon va o'zbek tilshunosligidagi talqiniga doir tadqiqotlar sharhi, tilshunoslikda graduonimiyaning leksik-semantik munosabatlar tizimidagi o'rni va uning o'rganilishi, shuningdek, darajalanishning tillar tiplari orasidagi²⁸ bog'lanishlarda va umuman tilning barcha sathlari, ularning birliklari, umumiy va xususiy tizimlarda o'z ifodasini topishi tahlil qilingan.

²⁸ Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. док дисс. автореф – Тошкент, 1994. – В.42.

Bobning **“Tilshunoslikda graduonimiya hodisasining o‘rganilishi”** nomli birinchi bo‘limida o‘tgan asrlarda jahon tilshunos olimlarining, xususan, Alisher Navoiyning **“Muhokamatul-lug‘atayn”** asarida turkiy tildagi fe’llarning darajalanishi va bu hodisaning poetik tasvir samaradorligini oshirishdagi ahamiyati masalalarini yoritishga oid ishlari, darajalanish qonuniyatlari va uning o‘zbek tilshunosligidagi tatbiqi masalalari, o‘zbek, rus, nemis va ingliz tillarida so‘zlarning darajalanishi masalalarini o‘rgangan tilshunos olimlarning graduonimlarning qiyosiy tadqiqi borasidagi fikrlari, lisoniy darajalanishning lingvistik qonuniyat ekanligi, darajalanish mexanizmi va hodisasining tabiiy-ontologik mohiyati, darajalanish hodisalarining lug‘atlarda berilishi masalasi kabi qarashlar hamda ulardagi muhokamali holatlar tahlil qilinib, munosabat bildirilgan.

Graduonimiya, umuman olganda, tilning leksik-semantik munosabatlar tizimi tadqiqi masalasining ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilish asoslari, tilshunoslikda gradatsiya, ya’ni sintaktik (matniy) ifodadagi kuchaytirilish, ko‘tarilish (klimaks) yoxud kuchsizlantirish (antiklimaks) kabi umumiy yo‘llar haqidagi qarashlar²⁹, shuningdek, til birliklari va tizimida ma’lum belgining miqdoran ozayish – ko‘payishi asosida tadrijiylik yoki oraliqlanish orqali aks eta olishi, **“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”** va **“O‘zbek tilining so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘ati”**da so‘z ma’nolaridagi darajalomlarning berilishi haqidagi tadqiqotlar tahlilga tortilgan.

Bobning **“Tilshunoslikda daraja paradigmasi va daraja kategoriyasi masalalari talqini”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida jahon va o‘zbek tilshunosligida tilga sistem yondashuvning kirib kelishi natijasida tilshunoslikda paradigma tushunchasi paydo bo‘lgani, paradigma tarkibiga kiruvchi birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari, graduonimik qator lug‘aviy paradigmaga qo‘yiladigan talablarning barchasiga javob berishi, ilmiy terminologiyada kategoriya tushunchasi, daraja hamda qiyos kategoriyasini farqlash lozimligi va olimlarning bu boradagi nazariy qarashlari tahlilga tortilgan.

Tilshunoslikda **“Lug‘aviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiy qonunlari mavjudligi e’tirof etiladi:**

a) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishi qonuni tajallilanadi;

b) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma’lum bir belgining tasdig‘i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkorni inkor qonuni namoyon bo‘ladi;

d) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug‘aviy ma’noviy qatorni – paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanishi³⁰” kabi umumiy qonuniyatlar asosida namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikda daraja paradigmasi bilan birgalikda daraja kategoriyasi ham graduonimiya hodisasini sharhlashda muhim terminologik apparat hisoblanadi. U.Tursunov, J.Muxtorov va Sh.Rahmatullayev muallifligidagi **“Hozirgi o‘zbek**

²⁹ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М., 1969. С. 112-113. Квятковский А. Поэтический словарь. М., 1996. С. 92. Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нуткида хиазм ва градация.-Фарғона, НДА., 2004. Мамажонов А., Махмудов У. Услубий воситалар. –Фарғона, 1996.

³⁰ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T.,:Fan va texnologiya, 2009. – B.171.

adabiy tili” darsligida daraja kategoriya sifatida talqin etiladi va darajaning ikki shakli farqlanadi: ozaytirma daraja; orttirma daraja.

Ishonch bilan aytish mumkinki, o‘zbek tilidagi birorta hodisa darajadek rang-barang talqinga ega emas. Buning barchasi daraja ma’nosini ifodalovchi vosita har xilligi, qamrovi kengligi, aniqrog‘i, grammatik kategoriya mezoniga sig‘masligi bilan belgilanadi³¹. Bu esa darajalanish (graduonimiya) hodisasini grammatik kategoriyadan kengroq funksional- semantik maydon sifatida o‘rganish lozimligini ko‘rsatib turadi.

Bobning uchinchi bo‘limi **“Graduonimiyaning leksik-semantik munosabatlar tizimidagi o‘rni”** deb nomlangan. Unda tilshunos olimlarning til birliklariaro amal qiladigan leksik-semantik munosabat turlarining har biri o‘ziga xos lingvistik belgi va xususiyatlarga ega ekanligi, graduonimiya hodisasining leksik sistemasidagi o‘rni, leksik sistemada uchrovchi munosabatlarning salmoqli qismini giper-giperonimik (jins-tur) va graduonimik (darajalanish) munosabatlari tashkil etishi, o‘zbek tilshunosligida darajalanish hodisasining semantik maydonlarda namoyon bo‘lishi haqidagi ilmiy qarashlari o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida darajalanish hodisasining semantik maydonlarda namoyon bo‘lishi masalasiga tilshunos olim A.Sobirov o‘z tadqiqotida alohida to‘xtalgan. “Semantik maydonlardagi leksik darajalanish (graduonimiya) bir necha ko‘rinishlarda amalga oshadi. Boshqacharoq qilib aytadigan bo‘lsak, u maydon iyerarxiyasining o‘zagini, qolipini tashkil qilishda asosiy vosita vazifasini o‘taydi.

Uning quyidagi turlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1. Maydon uzvlari (a‘zolari) o‘rtasidagi ichki darajalanish. Bu darajalanish gorizontaal, vertikal va spiralsimon xarakterga ega bo‘lib, leksik ma’nodagi yadro va periferiya qismlari bo‘ylab tarmoqlanadi.

a) vertikal yo‘nalishdagi darajalanish: *past-o‘rtacha-baland-osmono‘par (narsalarga nisbatan); pakana-o‘rtacha-novcha; tepalik, adirlik, tog‘lik; tomir - tana-shox;*

b) gorizontaal yo‘nalishdagi darajalanish: *kalta-risoladagi-uzun; millimetr-santimetr-detsimetr, metr-kilometr;*

v) butun ko‘lamiga ko‘ra darajalanish: *ozg‘in-binoyidek-semiz-mesh; xira-tiniq-musaffo; rezanda (tumor)-gripp-bronxial astma*³².

Butun ko‘lamiga ko‘ra darajalanish semantik maydonlarda eng ko‘p uchraydigan hodisa sanaladi. Qizig‘i, darajalanishning muayyan nuqtalarida ba’zi bir leksemalar bir nechta ma’nodoshlariga ega bo‘lishi mumkin.

Semantik maydon a‘zolarining har biri o‘z darajasiga qarab turib paradigma ichida gradual chiziqni hosil qiladi.

Leksik-semantik munosabatlarning har biri o‘zaro bir-biri bilan yaqin aloqadorlikda bo‘ladi. Har-bir munosabatda darajalanish nuqtalari bor va ular o‘zaro hamkorlikda rivojlanadi. Ushbu fikrlardan shuni anglash mumkinki, graduonimiya boshqa leksik-semantik munosabatdosh birliklar bilan o‘zaro

³¹ Замонавий ўзбек тили (Морфология). Иккинчи жилд. – Тошкент: «Мумтоз со‘з» нашриёти, 2008. – Б. 256.

³² Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 149.

umumiy kesishuvchi nuqtalarga ega. Masalan, o'zbek tilshunosligida shakllangan graduonimik qonuniyat yutuqlari bugungi kunda sinonimik qatorlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Dissertatsiyaning **“O'zbek tilidagi fe'llarning ma'noviy graduonimiyasi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida so'z turkumlarida graduonimiya hodisasining o'rganilishi, so'z turkumlarida leksika va grammatika, lison va nutq, til va borliq munosabatlari, so'zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, tilshunos olimlarning har bir so'z turkumida graduonimik qatorlarning mavjudligi, anemonimlar(tabiyy ofatlar, jumladan, bo'ronlar, siklonlar, tayfunlar nomlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi³³) birliklar asosida ham graduonimik munosabatlarning yuzaga kelishi haqidagi ilmiy asoslari tahlilga tortilgan.

Bobning birinchi bo'limi **“So'z turkumlarida graduonimiya hodisasining qo'llanishi”** deb nomlangan. Tilshunosligimizda asosiy e'tibor so'z turkumlari tasnifiga qaratilib, boshqa bir muhim masala – so'z turkumlarining o'zaro munosabati, ularning kesishuv nuqtalari, yaqinlashuvi va uzoqlashuvi ko'pincha nazardan chetda qoladi.

Graduonimiya bo'yicha tadqiqot olib borgan tilshunos olim Sh.Orifjonova o'zbek tilida lug'aviy graduonimiyaning tadqiqiga oid izlanishida so'z turkumlarida darajalanish to'g'risida qisqacha ma'lumot berib, har bir so'z turkumida graduonimik qatorlarga misollar keltirib o'tadi. Masalan, otlar predmetni ifodalab kelganligi uchun ularda graduonimik qatorlarni ko'plab tuzish mumkin, deb hisoblaydi.: *kulba→hujra→uy→hovli→ko'shk→qasr→saroy→koshona*. Tilshunos olim Sh.Orifjonova sifatlarda yetakchi ma'no belgi-xususiyat bo'lganligi uchun ularda darajalanish yuqori bo'lishligini va fe'llar belgi yoki holatni harakatda ifodalaganligi uchun ulardagi graduonimik qatorlar turlicha ekanligi haqida alohida to'xtalib o'tadi³⁴.

Bobning ikkinchi bo'limi **“Fe'llarda darajalanish hodisasining namoyon bo'lishi”** deb nomlangan. Boshqa so'z turkumlarida bo'lgani kabi fe'llarda ham darajalanish hodisasi mavjudligini alohida ta'kidlash lozim. Graduonimiyaga oid izlanishlar olib borgan o'zbek tilshunoslari orasida grammatik kategoriyalarda darajalanish to'g'risida faqatgina O.Bozorovning tadqiqotida morfologik sathda darajalanish qismida to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda fe'l kategoriyalarida ham darajalanish mavjudligi izohlab beriladi³⁵. Dastavval nisbat kategoriyasida graduonimiya qay holatda namoyon bo'lishini tadqiqotchilarning fikrlariga asoslangan holda bayon etamiz.

Nisbat kategoriyasi harakatning subyekt, ya'ni bajaruvchiga munosabatini, harakatning subyekt va obyektga munosabatini ko'rsatadi. Nisbat kategoriyasida darajalanishni O.Bozorov nisbat turlari orasida o'zaro turli tamoyillarlariga ko'ra, ya'ni harakatning bajarilishidagi fe'l nisbatlarining ishtirokini hisobga olgan holda namoyon etadi. “Unga ko'ra nisbat ketegoriyalari orasida quyidagicha

³³ dictionary.ru/определение%20слова/анемоним.html

³⁴ Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996.– В.7-10.

³⁵ Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. — В.183.

darajalanishni kuzatish mumkin: a) subyektning harakatni bajarish mavqeiga ko'ra: *aniq/o'zlik–birgalik–orttirma–majhul*; b) harakat bajarilishida o'zga shaxslar miqdorining oshib borishi: *o'zlik–orttirma–birgalik*; v) harakat bajarilishida o'zga shaxslarning ta'siriga uchrash darajasi: *mo'tadil (aniq, o'zlik, majhul) – tenglik yoki hamkorlik (birgalik) – tobelik (orttirma*; g) harakat aniqligining kamayib (uzoqlashib) borishi: *aniq – o'zlik – birgalik – orttirma – majhullik*"³⁶.

Fe'ning asosiy belgilaridan hisoblangan bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasida darajalanish mavjud. Fe'llarning bo'lishli va bo'lishsizlik shakllari orasida ham tutashuvlar mavjud bo'lib, oraliq ma'nolarni ifodalagan muayyan shakllari bilan birgalikda darajalanish qatorini yasash mumkin. Binar oppozitsiyasiga qo'yilgan *o'qigan* va *o'qimagan* so'zlar orasida qo'shimchalar yordamida ma'noning pasayib borish holati bilan darajalanish qatori tuziladi: *o'qigan – o'qigan bo'lsa kerak – o'qigandir – o'qigan ko'rinmaydi – o'qimagan ko'rinadi – o'qigan emas – o'qigani yo'q – aslo o'qigani yo'q*. Albatta, ushbu zanjirda harakatning bajarilishidan to bajarilmaganligiga qadar ma'noviy pasayishlar mavjud. Shu o'rinda mayl kategoriyasi va unda darajalanish holatiga ham e'tibor qaratib o'tish joiz. Mayl kategoriyasi harakatning voqelikka munosabatini so'zlovchi nuqtayi nazaridan belgilovchi grammatik kategoriya hisoblanadi. Fe'l mayllari orasidagi darajalanish mavjud ekanligini fe'lda aks etgan harakat mundarijasining voqelikka (hodisaga) aylanish imkoniyatiga ko'ra mayl ma'nolarida darajalanish *maqsad mayli–buyruq istak mayli–shart mayli (shartli mayl)–xabar mayli* tarzidagi ketma-ketlikda joylashtiriladi³⁷.

Zamon kategoriyasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlar orasida harakat davomiyligiga ko'ra tadrijiy ketma-ketlik mavjud: *o'tgan zamon – hozirgi zamon – kelasi zamon (o'qidi/o'qigan – o'qiyapti/o'qimoqda – o'qiydi)*.

Fe'l kategoriyalaridan biri sifatida shaxs-son kategoriyasi va unda darajalanish hodisasining kuzatilishiga ham to'xtalib o'tamiz. Shaxs-son kategoriyasida darajalanish harakatga aloqador bo'lgan shaxsning obyektga nisbatan uzoq-yaqinlik holatiga ko'ra: *I shaxs – I shaxs–Sh shaxs* tarzida ifodalanadi. Bu xuddi olmoshlarda shaxsning so'zlovchidan uzoqlashishiga ko'ra darajalanishiga o'xshashdir. Son kategoriyasida esa miqdor jihatdan birlik va ko'plik farqlansa-da, ular orasida oraliq uchinchining mavjud emasligi darajalanish qatorini tuzish imkoniyatini bermaydi.

Bobning uchinchi bo'limi **“Fe'l leksemalarining darajalanishiga ko'ra turlari”** deb nomlangan. Fe'l sememalarida darajalanish hodisasining namoyon bo'lishi masalasida tilshunos olim R.Rasulov quyidagi misollarni bayon qiladi. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da harorat belgisiga ega: isimoq, qizimoq fe'llari-sinonim birliklar bir xil izohlanadi: Ko'p issiqlikka ega bo'lmoq, harorati ko'tarilmoq. Har qanday sinonim so'zlar bir-biridan qo'shimcha ma'no nozikligi (konnotatsiyasi)ga ko'ra farqlanganidek, isimoq va qizimoq xam o'zaro ma'no qirrasiga ko'ra farqlanadi:

³⁶ Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 184.

³⁷ Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 185.

Qizimoq — *harorati juda ko'tarilgan, qizish holatiga o'tmoq: Kunduz qizib, tunlar kuydirib yomon* (F. Yo'ldosh). *Kundan- kunga havo qizidi* (Oybek).

Isimoq — *harorati ko'tarilgan, isish holatiga o'tmoq: Bugun ertalabdan kun ham isidi* (H. G'ulom). *Bahor kelishi bilan kun isiydi* (Sh. Shomaqsudov, S. Dolimov). Qizimoq ma'nosida belgi darajasi kuchli bo'lib, u, asosan, og'zaki nutqqa xos.³⁸ Mayinlashmoq fe'lida ham darajalanish bor. "Mayinlashmoq — yumshoq, yoqimli, muloyim holatga o'tmoq: *Ertalabki sovuq shabada peshinda mayinlashib, bahordan darak beradi.* (Toshkent oqshomi) Mayinlashmoq ma'nosida belgi darajasi ortiqroq. Bu so'z qo'shimcha "yoqimli" belgisi (semasi)ga ega bo'lib, ijobiy bo'yoq ifodalaydi. Mayinlashmoq, yumshamoq so'zlari, asosan, adabiy tilga, she'riyatga, ilimoq fe'li esa jonli nutqqa xos³⁹.

Qovjiramoq → *qurimoq* → *qaqramoq* darajalanuvchi fe'l qatori harakat natijasi bo'lgan holat fe'llarining ma'no tuzilishiga ko'ra izohlanishini "O'zbek tili izohli lug'ati"dagi berilishi hamda atoqli tilshunos olim R.Rasulov tomonidan izohlanishini ko'rib chiqsak:

QOVJIRAMOQ 1 Suvsirab yoki issiqning zo'ridan, garmseldan so'limoq, qurib bujmaymoq, quruqshamoq. *Qovjiragan barg. Qovjiragan o't. shsh Adolat.. chanqab, qovjirab turgan har bir g'o'zaga qarab achinar va tungi suvni shimirib tirilayotgan har bir g'o'zani ko'rib quvonardi.* I. Rahim ("Chin muhabbat")

2 Suvsizlik va issiq ta'sirida qaqramoq, porsillamoq, yorilmoq. *Qovjiragan yerlar. Haroratdan lablari qovjiradi. shsh Gulxanchilarning dala shamoli bilan qovjiragan yuzlariga tiniq qizillik yugurib olovlandi.* Oybek. Tanlangan asarlar. Keyin boshini shart burib, suvsizlikdan qovjirab yotgan tarnovga qarab yurdi. D.Nuriy ("Osmon ustuni")

3 *ko'chma* Dard, alam va sh.k. dan kuyib ado bo'lmoq, o'rtanmoq. *Shundan buyon qiz ayriliq dardida qovjiraydi.* Oybek (Oltin vodiyan shabadalar)⁴⁰

QURIMOQ 1 Ho'l, namlikdan xoli bo'lmoq, quruq holga kelmoq (q. **quruq 1**). *Ho'l bo'lgan kiyimlari oftobda tez quridi. Arralab, yorib, taxlab qo'yilgan o'tinlar yaxshi quridi. G'ulomjonlar.. oftobda qurib, taxta oralari katta ochilib qolgan bir tabaqali eshikni taqillatishdi.* M. Ismoilov. ("Farg'ona tong otguncha"). o. *Ipga chizilgan jambillar qurib, qovjirab qolgan edi.* S. Zunnunova, Olov. *Qo'ltig'idan qog'ozga o'ralgan, qurib tolqonlangan nosini olib, til ostiga otdi.* Oybek. ("Quyosh qoraymas")

2 Suvi tugamoq (suv obyektlari haqida). *Orol dengizi surib bormoqda. Yaxshi so'zdan moy eriydi, Yomon so'zdan soy quriydi.* (Maqol) *Yozda chayla qurib ketdi.. "Gulnorpari"*⁴¹.

QAQRAMOQ Nami qochib yoki suvsizlikdan, tashnalikdan qurib qolmoq; quruqshamoq. *Qaqragan cho'l. Tomog'im qaqrab ketyapti. Bemorning lablari qaqradi. mm Kimsasiz cho'l. Quyoshning jazirama issig'idan hamma yoq qaqrab ketgan.* (Gazetadan)⁴²

³⁸ Расулов Р. Узбек тили феълларининг маъно тузилиши. — Тошкент, 2008. — В.26.

³⁹ Расулов Р. Ко'rsatilgan manba. — В.26.

⁴⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. 1-жилд. — Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. — В. 334.

⁴¹ Ко'rsatilgan manba. — В. 402.

⁴² Ко'rsatilgan manba. — В. 283.

“Qovjiramoq — suvsizlikdan qurib, bujmaygan, so‘ligan holatga utmoq: *Tez kunda quyosh devorlar rangini ko‘tardi, endigina ko‘kara boshlagan giyohlarni qovjiratdi.* (O.Muxtorov) *Adolat ... chanqab, qovjirab turgan xar bir g‘o‘zaga qarab achinar ...* (I. Raxim)

Qurimoq — suvsiz (namsiz) holatga o‘tmoq: *Daryoda suv quridi.* (M. Egamberdieva) *U tomida quritilgan mayizlarni pastga tushirib ...* (S.Yunusov)

Qaqramoq — butunlay suvsiz, suvi (nami) yo‘q holatga o‘tmoq: *Ariqlar qaqragan, daraxt yaproqlari to‘zigan* (M.Ismoilij). *Agar suv bo‘lmasa, ekinlar qaqrab, daraxtlar quriydi.* (S.Yunusov) *Yer qaqragan.* (N.Yoqubov) Qaqramoq ma’nosida belgi darajasi ortiq⁴³ligi R.Rasulov tomonidan qayd qilinadi.

Yuqoridagi ta’kidlangan tahlillardan shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, fe’l leksemalarida darajalanish holatlari nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ammo ilmiy manbalarimizda va “O‘zbek tili izohli lug‘at”larida to‘g‘ridan-to‘g‘ri darajalanuvchi fe’l leksema ekanligiga ishora yo‘q yoki sinonimiyaning tarkibidagi darajalanuvchi qator sifatida yondashuvlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin ekanligini ta’kidlamoqchimiz.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek tilidagi fe’llarning leksikografik talqini”** deb nomlangan oxirgi bobi to‘rt bo‘limdan iborat. **“O‘TILda darajalanuvchi fe’llarning leksikografik talqini”** deb nomlangan birinchi bo‘limida “O‘zbek tili izohli lug‘ati”dagi fe’llarning leksikografik talqini masalasi XX asrning 80-yillariga borib taqaladi. Akademik A.Hojiyev mas’ul muharrirligida tadqiqotchi X.Yusupxo‘jayeva tomonidan 1988-yilda “Fan” nashriyotida nashr qilingan “O‘zbek tili izohli lug‘atida fe’llarning ishlanilishi” nomli monografiyada ushbu masalaning birinchi bo‘lib kun tartibiga olib chiqilganligi fikrimizga isbot bo‘la oladi. Lug‘atlar tom ma’noda har qanday xalqning ijtimoiy-iqtisoiy, siyosiy va madaniy jihatdan erishgan natijalari, yuksalishi va evolyutsiyasini tilda aks ettirib turuvchi fenomen. Lug‘atning ahamiyati muayyan millatning tili va lug‘at orqali shakllanadigan strukturasi bilan cheklanib qolmaydi, balki u orqali kashf etiladigan madaniyati, o‘tmishi, turmush tarzi bilan ham belgilanadi⁴⁴. Deb qayd qilib o‘tadi tadqiqotchi O.Shukurov. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida darajalanish va u bilan bog‘liq hodisalarni atovchi terminlar har xil talqinga ega, mazkur izohlarning turlicha keltirilishi lug‘at mualliflarining tadqiq obyektiga o‘ziga xos yondashuvini belgilaydi.

1981-yilda chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da aynan darajalanish hodisasi izohi berilmagan ammo daraja tushunchasining ma’nolari berilgan.

Izohli lug‘atlarda darajalanish qatorlari sharhidagi farqlar. O‘TILning 1981-yilda nashr qilingan ikki tomlik va 2006 – 2008-yillarda nashr qilingan 5 tomlik nashrlarini taqqoslab, ikkala nashrda darajalanish qatorlarini izohlash turlicha ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu holatda ham O‘TILning 2-nashridagi izohlardan shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, graduonimik qatorlar to‘laligicha izohlanmagan yuqoridagi ikki misolda ham darajalanish qatoridan *jilmaymoq* → *kulimsiramoq* → *tabassum*

⁴³ Rasulov P. O‘zbek tili fe’llarining ma’no tuzilishi. – Toshkent, 2008. – B.20.

⁴⁴ Шукуров. О. Замонавий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини. Монография. Қарши-“ИНТЕЛЛЕКТ” нашриёти. 2022. – В. 172.

qilmoq qismi izohlanib negadir ikki nashrda ham *kulmoq* → *qah-qahlamog* qismi tushib qolgan. Bu esa darajalanish qatorining toʻlaligicha izohlanishiga erishilmaganligini koʻrsatmoqda.

OʻTILning ikkala nashrida ham darajalanish qatorlari toʻla yoritilmaganligiga guvoh boʻlmoqdamiz. Bu shundan dalolat beradiki, graduonimiya hodisasi boshqa leksik-semantik munosabatlar (sinonimiya, antonimiya)ga nisbatan keyinroq oʻzbek tilshunosligida tadqiq obyekti boʻlgani uchun izohli lugʻatlarimizda toʻlaligicha yoritilmagan.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida darajalanuvchi soʻzlar tavsifi va talqini masalasi turlicha ekanligini yuqoridagi misollar asosida koʻrib oʻtdik. Avvalo, Oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida darajalanuvchi soʻzlar tavsifi masalasi turlicha ekanligi tabiiy hol chunki, ularning nashr yillari orasida farqning boʻlishi, mustaqillik davrida tilga berilgan eʼtibor asosida ikki jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” mustaqillik yillari oʻzbek tili leksikasini oʻzida ifoda eta olmas edi. Ikki jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” yuzaga kelgandan buyon oʻtgan yigirma yildan koʻproq vaqt mobaynida oʻzbek tili leksikasida yuz bergan oʻzgarishlar eʼtiborga olinsa, allaqachon ana shunday lugʻatning yangisini yaratish vaqti kelganligi va bu ish hozirgi kunning talabi ekanligi oʻz-oʻzidan ayon boʻladi⁴⁵. (3.1-jadval)

3.1-jadval

**Oʻzbek tilida darajalanish qatorlari tuzishda ishtirok etgan feʼl
leksemlarining semantik kategoriyalar boʻyicha statistikasi**

№	Semantik kategoriyalar	Umumiy soni raqamda	Darajalanadigan leksemlar soni	Darajalana digan leksemlar foizi	Graduonimik qatorlar soni
1	Holat feʼllari	536	353	66%	99
2	Harakat feʼllari	348	154	44%	37
3	Natijali faoliyat feʼllari	246	127	52%	32
4	Nutq feʼllari	261	141	54%	32
5	Munosabat feʼllari	75	47	63%	13
6	Tafakkur feʼllari	57	34	60%	12
	Jami	1523	856	-	225

Berilgan maʼlumotlarga koʻra, eng koʻp darajalanish qatorlari holat feʼllaridan tuzilganligini aniqlagan. Undan soʻng harakat, natijali faoliyat, nutq, munosabat va tafakkur feʼllari ketma-ketlikni egallaydi. Hosil qilingan darajalanish qatorlarida ayrim feʼllar birdan ortiq marotaba ishtirok etgan va qatorlarda teng maʼnoli graduonimlar ham berilgandir. Oʻtkazgan tadqiqotimiz natijasiga koʻra, oʻzbek tilida feʼlning barcha semantik guruhlarida graduonimiya hodisasini kuzatish mumkin. Aksariyat feʼllarning sinonim va antonimlarga egaligi bois, ikki qutbli darajalanish qatorlarini, yaʼni makro va mikro graduonimik qatorlarni tuzish imkoniyati mavjud

Bobning ikkinchi boʻlimi ”Oʻzbek tilining darajalanish oʻquv lugʻatlarida feʼllarning maʼnoviy darajalanishiga koʻra berilishi” deb nomlangan. Darajalanish

⁴⁵Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2006. 1-жилд – В. 3.

hodisasining leksikografik tadqiqi masalasi o‘zbek tilshunosligida alohida monografik planda tadqiq qilinmagan. Graduonimiyaning leksikografik aspektidagi tahlili uchun o‘zbek tilshunosligida Sh.Bobojonov, I.Islomovlarning maktab o‘quvchilari uchun 2007-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop qilingan “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati”gina borligini alohida qayd etish darkor. “Ushbu qo‘llanma o‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati bo‘lib, unda so‘zlar darajalanishi alifbo tartibida nutqiy misollarsiz graduonimik qator holida berilgan:


Achchiq – taxir – nordon – chuchuk – shirin; (maza-ta’mining me’yoridan ortiq-kamligiga ko‘ra)

Avvalgi – hozirgi – keyingi; (zamon belgisiga ko‘ra)

Adoq – bel – bosh; (joylashish o‘rnining yuqoriligiga ko‘ra)

Ayb – gunoh – jinoyat; (ijtimoiy zararining kuchliligiga ko‘ra)⁴⁶.

